

Andijon davlat tibbiyot instituti umumiy jarrohlik kafedrası



Kafedra mudiri dotsent

S.Z.Salaxidinov

tel: +99890-529-24-23

email: salaxidinov1972@mail.ru

Umumiy jarrohlik kafedrası tarixi va faoliyati

Andijon davlat tibbiyot instituti umumiy jarrohlik kafedrası 1957-yil Andijon shahar shifoxonasi jarrohlik bo'limi bazasida tashkil topgan. Kafedra mudiri etib t.f.n. dotsent Karaev Ibragim Kosimovich tayinlangan. Institutimizning birinchi jarrohlik kafedrasida dotsent Karaev I.K., assistentlar Raximov S.R., Saidxonov A.S., Ibadov I.YU., J.A.Muhamedovlar faoliyat ko'rsatgan.



**Karim Raximovich
Mirzaev**

(1924 -1991y)



**Odil Xolmatovich
Xolmatov**

(1929-1993y)



**Sotvoldi Parpievich
Xakimov**

(1937-2006y)

1964 -1979 yillari dotsent D.X.Xodjaev rahbarlik qildi.

1979 – 1982 yillarda umumiy jarrohlik kafedrasiga dotsent K.R.Mirzaev rahbarlik qildi.

1982 yil oxiridan 1988 yilgacha kafedrani professor O.X. Xolmatov boshqardi. Bu yillarda kafedra bazasi ADTI klinikasi 2 jarrohlik bo‘limiga o‘tdi.

1989-1991 yillarda professor Obid Siddikovich Siddikov,

1991- 1993 yillar dotsent S.P.Xakimov kafedraga rahbarlik qildi.

1993 - 2014 yillar professor A.YA.Urinov kafedraga rahbarlik qildi.

Dotsent I.K.Karaev yurak qon - tomir xirurgiyasi ilmiy tekshirish institutida akademik Bakulev qo‘l ostida doktorlik dissertatsiyasini yoqladi va 1964 yildan Stavropol tibbiyot institutiga ketgan. 1964 yilda umumiy xirurgiya kafedrasiga dotsent V.M.Markushev rahbarlik qildi. 1965 yildan Ufa tibbiyot institutida faoliyat yuritgan. 1965 -1966 yillarda t.f.n. Najmitdinov Nosir Najmitdinovich, 1966 - 1967 yillarda t.f.n. Dustmuradov Mirzabek Dustmuradovich, 1967-1968 yillarda dotsent Svirko Vyacheslav Mixaylovichlar kafedrani boshqardilar. 1968 yildan Andijonlik olim dotsent Dadash Xodjaevich Xodjaev umumiy jarrohlik kafedrasini boshqara boshladi. Ushbu yillarda Saidxonov A.S., Raximov S.R. endemik bo‘qoq xastaliklarini diagnostika va davolash masalalari bo‘yicha nomzodlik dissertatsiyasini yoqladilar. I.YU.Ibadov «Siydik tosh kasalliklarida toshlar turlari va xususiyatlari» mavzusida nomzodlik, keyinchalik «Ichaklararo anastomozlarda invaginatsion usullarning ahamiyati» mavzusida doktorlik dissertatsiyasini yoqladi. Ushbu kafedrada U.A.Eshanxodjaev, Akbar Ganievich Davidov, Gayrat Jalilovlar assistentlik lavozimida ish olib borganlar. U.A.Eshanxodjaev urologik xastaliklar, A.G.Davidov «YUurakda o‘tkaziladigan operatsiyalar» mavzusida nomzodlik dissertatsiyalarini yoqlashdi.

1979-1982 yillarda umumiy jarrohlik kafedrasiga dotsent Q.R.Mirzaev rahbarlik qildi.

Kafedra viloyat klinik shifoxonasida joylashgan bo‘lib, unda dotsentlar D.X.Xodjaev, YU.YU.Xaimov, assistentlar N.A.Grigoryan, M.Turgunov, O.Axmedovlar faoliyat ko‘rsatdilar.

1982 yil oxiridan 1988 yilgacha kafedrani professor O.X. Xolmatov boshqardi. Bu yillarda kafedra bazasi ADTI klinikasi 2 jarrohlik bo‘limiga o‘tdi. 1989-1991 yillarda professor Obid Siddiqovich Siddiqov, 1991- 1993 yillar dotsent S.P.Xakimov kafedraga rahbarlik qildi. 1993 yil aprel oyida kafedraga professor Anvar YAsharovich Urinov rahbar bo‘lib o‘tdi. Kafedraning bazalari 2-jarrohlik, qon-tomir jarrohligi, yiringli jarrohlik va proktologiya bo‘limlari xisobiga kengaytirildi. Kafedrada 1985-1993 yillar X.T.Musashayxov, S.A.Qoraboev, Q.A.YUusupov, U.M.Koraboevlar nomzodlik dissertatsiyalarini yoqlashdi. Dotsent X.T. Musashayxov, U.Qoraboev, Q.A.YUusupovlar professor A.YA.Urinov rahbarligida doktorlik dissertatsiyalari ustida ish boshlab muvaffaqiyatli himoya qildilar.

2000 yildan buyon ADTI umumiy jarrohlik kafedrasining ilmiy salohiyati ko‘tarila boshladi. 2000-2005 yillarda kafedra ilmiy potensialini 3 ta doktorlik, 5 ta fan nomzodlik dissertatsiyalari ustida olib borilgan ishlar tashkil etdi.

«Qandli diabetli bemorlarda kasalliklarni davolashda efferent usullar va limfatik terapiyani qo'llash», «Me'da 12 barmoqli ichak asoratlangan yara kasalligini davolash usullarini yaratish», «Yangi tibbiy yelimlarni umumiy jarrohlikda qo'llash» yo'nalishlari bo'yicha olib borilgan ishlar samarasi ko'zga ko'rinib qoldi.

2002-yilda dotsent X.T.Musashayxov «Qandli diabetli bemorlarda kasalliklarni davolashda efferent usullar va limfatik terapiyani qo'llash» mavzusida doktorlik dissertatsiyasini Toshkent shahrida muvaffaqiyatli yoqladi. Shu yili Moskva shahrida U.M.Qoraboev «Trofik yaralar va teri rakini davolashda fotodinamik preparatlarni qo'llash» mavzusida doktorlik dissertatsiyasini yoqladi.

2005-yil prof. A.YA.Urinov «Fotoximicheskaya terapiya gnoynix ran i troficheskix yazv» nomli monografiyasi chop etildi.

2005-yil mart oyida assistent S.Z.Salaxidinov «Vibor sposoba kxirurgicheskogo lecheniya demping-sindroma» mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli yoqladi. SHu yil kafedra dotsenti t.f.d. X.T.Musashayxovga professor unvoni berildi. 2008 yil assistent X.M.Mamadiyev Moskva shahrida «Puti optimizatsii k xirurgicheskogo lecheniya penetriruyshix duodenalnix yazv v podjeludochnyu jelezu» mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini yoqladi. 2010 yilda assistent B.X.Matkarimov «Patogeneticheskie aspekti kompleksnogo lecheniya ostroy tonkokishechnoy neproxodimosti» mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi.

Kafedra 4 ta ilmiy YO'NALISHda faoliyat kursatmoqda:

1. Asoratlangan me'da va 12 barmoqli ichak yara kasalligini davolash usullarini mukammallashtirish.
2. Umumiy jarrohlikda tibbiy yelimlarni qo'llash.
3. Umumiy jarrohlikda endogen intoksikatsiyaga qarshi kurashda sorbsion texnologiyalarni qo'llash sohalarida izlanishlar davom ettirilmoqda.
4. Kombinatsiyalashgan yurak nuqsonlarini jarrohlik yo'li bilan davolashda plastika usullarini bo'lib.

Kafedra dotsenti R.N.Abdullaev tomonidan 2007 yilda «Qon ivishini kuchaytiruvchi dorivor o'simliklar», 2008 yilda «Xalq tabobati qomusi» monografiyasining 1 jildi bosmadan chiqdi.

Andijon davlat tibbiyot instituti umumiy jarrohlik xirurgik kasalliklari va XDJ kursining 2009-2015 yillarga mo'ljallangan ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash va ilmiy-tadqiqot ishlarini rivojlantirish» dasturi bo'yicha ishlar olib borilmoqda. Kafedra assistenti tibbiyot fanlari doktori A.L.Qosimov rahbarligida iqtidorli talabalar ilmiy tugarakda jarrohlik YO'NALISHi bo'yicha dolzarb mavzularda izlanishlar olib bormoqdalar.



Kafedra hodimlari

Hozirda umumiy jarrohlik kafedrasini professor X.T.Musashayxov va dotsent S.Z.Salaxidinovlar rahbarligidagi professor A.YA.Urinov, dotsentlar R.N.Abdullaev, J.T.Axmadaliev, B.X.Matkarimovlar t.f.d. A.L.Qosimov,, assistentlar t.f.n. X.M.Mamadiev, F.D. Ikromova, S.M.Axmadaliev, E.A.Vasilevskiy, A.I.Turgunov, O.T.Dadaboev kabi ilmiy va amaliy potensialga ega kollektiv tashkil etadi. Kafedra hozirda 4 ta klinika bo‘limlari – 2-jarrohlik, yurak qon-tomir jarrohligi, yiringli jarrohlik va proktologiya bo‘limlarida faoliyat ko‘rsatmoqda. 2004 yildan kafedraning qon-tomir jarrohlik bazasi Kardiovaskulyar xirurgiyaga aylantirildi. Ushbu bazaga t.f.n.lar M.A.Mamatov, A.I.Turg‘unovlar ish yuritib O‘zbekiston Respublikasi xirurgiya markazi etakchi mutaxassislari bilan birgalikda yurakning tug‘ma va orttirilgan nuqsonlarini ochiq va yopiq tashrix usullari bilan davolashni yo‘lga qo‘ydilar. Bo‘lim mudiri t.f.d. A.L.Qosimov va t.f.n. A.Turgunovlar umumiy jarrohlik kafedrasida ham faoliyat ko‘rsatishmoqda. Dotsentlar S.Z.Salaxidinovlar va R.N.Abdullaevlar ushbu bo‘limning davolash ishlariga ma’suldirlar. Hozirda bo‘lim mutaxassislari yurakning murakkab nuqsonlarini ham operativ davolash ustida ish olib bormoqdalar.


SNO, iqtidorli talabalar va “Ustoz-shogird” dasturi asosida bajarilgan ishlar

Kafedra qoshida iqtidorli talabalar bilan ishlash talabalar ilmiy jamiyati olib borish va ustoz shogird dasturi asosida 2014-2015 o‘quv yillar mobaynida talabar ilmiy jamiyati qatnashchilari 22 nafar talabardan 5 nafari iqtidorli talaba deb

konkurs asosida tanlab olindi 2015 yil jarrohlik FAN klubi tashkil etildi klubga 22 nafar talaba qa'bul qilindi. FAN klubi azolari va iqtidorli talabalar shuningdek xohlovchi talabalar urtasida jarrohlik fani bo'yichafan olimpiyadasi o'tkazildi Olimpiyadada uch nafar talaba goliblikni kulga kiritdi 302 gurux davolash fakulteti talabasi Mamedova Maxliyo birinchi o'rinni egalladi. Talabalar ilmiy jamiyati qoshida FAN klubida haftaning har juma kunlari amaliy darslar o'tkazildi. Oyning ma'lum kunida kafedra mudiri X.T. Musashayxov boshchiligida ilmiy amaliy seminarlar o'tkazildi.

O'QUV JARAYONI SIFATINI OSHIRISH BO'YICHA AMALGA OSHIRILGAN ISHLAR

Kafedrada 2016-2017 o'quv yilida 5ta o'quv xonalar xomiylarni jalb etgan holda kapital ta'mirlangan va zamonaviy o'quv qurollar bilan jixozlangan. Amaliy mashg'ulotlar o'tishi sifatini oshirish uchun har bir pedagog Keys texnologiyasi bo'yicha tarqatma materialar bilan ta'minlangan. Har bir o'quv xonasiga telemeditsina va Internet tarmogi o'tkazilgan. Ma'ruzalar o'tkazish uchun har bitta o'tiladigan fan uchun o'zbek va rus tillarida multimediyali slayd leksiyalar to'plami va ma'ruzalar matni yaratilgan. O'quv jarayonida UUM keng foydalanmoqda.



■ t.f.d

■ t.f.n

■ darajasiz

**ANDIJON DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI UMUMIY JARROHLIK
KAFEDRASIDA OLIB BORILADIGAN ILMIY ISHLAR
YO'NALISHLARI**

“MUAMMOLAR BANKI”

1. Oshqozon va o'n ikki barmoq ichak yara kasalligining asoratlarida jarrohlik taktikasi: tashrixga tayyorlash va tashrixdan sungi davo, individual optimal tashrix turini tanlash, oshqozon-ichak tizimi dekompressiyasi, tashrixdan so'ngi asoratlar profilaktikasi, kam invaziv tashrixlar, parenteral oziqlantirish muammolari.
2. Asoratlangan jigar va upka exinokokkozi koldik bushligini bartaraf qilish usullarini takomillashtirish – yangi sianakrilat yelimlar bo'lib.
3. Tireotoksik bo'qoq xastaligida tashrixga ko'rsatmalar, radikal tashrix o'tkazish va tashrixdan keyingi davrda bemorlarni parvarish muammolari.
4. Mexanik sariqlik va ularni bartaraf qilish muammolari.
5. Splenomegaliya sindromlari va ushbu kasallikni davolashda tashrixdan oldingi davr, tashrix taktikasi va tashrixdan keyingi davrda parvarish qilish muammolari, tashrixdan keyingi prognoz.
6. Peritonit bilan asoratlangan O'tkir ichak to'tilishida davolashning patogenetik va klinik asoslari.
7. O'tkir pankreatitlarni davolashda naychalash va adsorbentlar qo'llash taktikasi.


MA'RIFAT-MA'NAVIYAT VA JAMOAT ISHLARI

Har oyning birinchi payshanba kuni reja asosida kafedrada ma'rifat-ma'naviyat kuni, har haftaning seshanba kunlarida ma'naviyat soatlari tashkil etilgan. Bu ishlar institut ma'naviyat va ma'rifat bo'limi bilan kelishilgan va tasdiqlangan holda olib borildi. Bu tadbirlarda faqat yuqoridagi mavzular bo'yicha emas, balki shahrimizda, viloyatimizda, yurtimizda va xorijda bo'lib utayotgan muxim hodisalar xaqida ma'lumotlar berib borildi. Prezidentimizning Farmon va Qarorlari, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi va sog'likni saqlash vazirliklari buyruq va farmoyishlari ham o'rganib borildi.

O'QUV XONALAR VA O'QUV – USLUBIY ISHLAR



KAFEDRA STENDLARI



O'QUV JARAYONLARI



Amaliy ko'nikmalar laboratoriyasida



Amaliy mashg'ulotda



Test sinovida



KAFEDRADA AMALIY KO'NIKMALARNI O'RGANISH JARAYONI





Yurak yopiq massaji



Boglamlar qo'yish